

II SHO'BA

OLIV TA'LIM SIFAT-SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA UZVIYLIK VA UZLUKSIZLIK TAMOYILI

ESTETIK QADRIYATLARNING STRATEGIK MOHIYATI VA YOSHLAR TARBIYASIGA TA'SIRI

Xudayberdiyeva Xuriyat Karimberdiyevna,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada ma'naviyat taraqqiyotida estetik qadriyatlarning strategik ahamiyati hamda ularning yoshlar dunyoqarashi, tafakkuri va axloqiy kamolotiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Estetik qadriyatlarni tizimli ravishda yoshlar ongiga singdirish ularning ma'naviy barkamolligini ta'minlash, vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash hamda komil insonni shakllantirishda muhim strategik omil hisoblanadi. Shu jihatdan estetik tarbiyani ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida rivojlantirish zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: estetik qadriyatlar, ma'naviy taraqqiyot, yoshlar tarbiyasi, estetik tarbiya, ma'naviy kamolot, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, yoshlar dunyoqarashi, estetik tafakkur, madaniyat, san'at, axloqiy tarbiya, ijodkorlik, globallashtirish, barkamol shaxs.

СТРАТЕГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ЭСТЕТИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ

Худайбердиева Хурият Каримбердиевна,

*доктор философских наук (DSc), профессор Термезский университет экономики
и сервиса*

***Аннотация.** В данной статье анализируется стратегическое значение эстетических ценностей в развитии духовности, а также их влияние на формирование мировоззрения, мышления и нравственного совершенствования молодежи. Системное внедрение эстетических ценностей в сознание молодежи является важным стратегическим фактором обеспечения их духовной зрелости, укрепления патриотических чувств и формирования гармонично развитой личности. В этой связи подчеркивается необходимость развития эстетического воспитания как неотъемлемой части образовательного процесса.*

***Ключевые слова:** эстетические ценности, духовное развитие, воспитание молодежи, эстетическое воспитание, духовная зрелость, национальные ценности, общечеловеческие ценности, мировоззрение молодежи, эстетическое мышление, культура, искусство, нравственное воспитание, творчество, глобализация, гармонично развитая личность.*

THE STRATEGIC ESSENCE OF AESTHETIC VALUES AND THEIR IMPACT ON YOUTH EDUCATION

Khudayberdiyeva Khuriyat Karimberdiyevna,

Doctor of Philosophy (DSc), Professor Termez University of Economics and Service

***Abstract.** This article analyzes the strategic importance of aesthetic values in the development of spirituality, as well as their influence on the worldview, thinking, and moral development of young people. The systematic integration of aesthetic values into the consciousness of youth is considered an important strategic factor in ensuring their spiritual maturity, strengthening patriotic feelings, and forming well-rounded individuals. In this regard, the necessity of developing aesthetic education as an integral part of the educational process is emphasized.*

***Keywords:** aesthetic values, spiritual development, youth education, aesthetic education, spiritual maturity, national values, universal values, youth worldview,*

aesthetic thinking, culture, art, moral education, creativity, globalization, well-rounded personality

Yoshlar har bir davrning generatori sifatida sivilizitsiyalarning almashinuvida tarix sahnasida mo'tadillikni ta'minlash uchun maydonga chiqqanlar. Inson ruhiy holatining quvonch va iztirobga egaligini saxovatli kishilarning marhamati bilan bog'lab, o'z fe'l-atvorlarini chiniqtirib borganlar. Shu sababli yoshlar masalalari bilan shug'ullangan ko'plab estetikshunoslar qadriyatlarning ma'naviyat rivojidadagi roliga e'tibor qaratganlar.

Voqelikka qadriyatli munosabat ijtimoiy-madaniy jarayonga o'ziga xos murakkabliklar bilan nozik yondashishni talab qiladi. Qadriyatli munosabatni ifodalash bir martalik yoki bir qatorli shakllarga ega qarashlar majmui emas. U o'zini hissiy reaksiyalarda, nutqda, harakatlar va ishlarda namoyon qiladi.

Agar ushbu munosabatlarda biron-bir nomuvofiqlik bo'lsa, unda biz yoshlarning ma'naviy va axloqiy beqarorligini ta'minlashimiz, o'zligini anglatishimiz lozim. Demak, yoshlarda qadriyatli munosabatlar shakllanmaganligi ular bilan real voqelik o'rtasida mavhumlik mavjudligini ko'rsatadi. Bunday holat sodir bo'lganda jamiyatdagi asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida ta'limdan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda ustozning ta'limi, dars jarayonidagi usullari o'quvchi yoki talabaning ichki his tuyg'ularini asta-sekin singib borib, ularda borliq haqiqatini anglab etishi uchun yangi motivatsiyalarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Insonning borliqni o'zlashtirishi, voqelikda mavjud moddiy qadriyatlardan estetik qadriyatlarni yaratishi, jumladan, qadriyatlarning mazmunli qatlami orqali o'z xalqining madaniyatini jahonda yuqori pog'onalarga olib chiqishga hissa qo'shadi. Muayyan jamiyatda yashayotgan turli millat vakillarining birlashib, aniq bir maqsad sari intilishlari umuminsoniy qadriyatlarning rivojlanishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi o'zining barcha me'yoriy-huquqiy hujjatlarida mamlakatda yashab kelayotgan barcha millat va elatlarning teng huquqliligini kafolatlab qo'ygan. Har bir millatning yurtimizda o'z marosim, an'analari rivojlantirishi hamda shug'ullanishi

uchun barcha imkoniyatlar mavjudligi, bir oila sifatida yashashi ijobiy holdir. Bu huquqiy normalar bevosita O'zbekistonning bosh qomusi orqali milliy mentalitetga monand holda ifodalab berilgan. Shu huquqiy negizlarga tayangan holda barcha insonlar bir xalq sifatida birlashib, yagona milliy g'oya asosida yashab kelmoqdalar. Ular o'rganilgan taqdirda ham har qanday ko'p millatli mamlakatda umumiy manfaatlardan tashqari milliy manfaatlar ham mavjudligini hisobga olinadi. Bunday holat ayni paytda bizning yurtimizda ham xalqaro talablar darajasini tashkil etilgan. Aslida jamiyatda bu jarayon ijtimoiy taraqqiyotda milliy manfaatlarning mavjudligini hisobga olish zarurligini taqozo qiladi. Zero, manfaatlar o'zaro muvofiq kelmagan joyda tegishli farqlar, ziddiyatlar, ba'zida qonli to'qnashuvlar yuzaga keladi. Ularning milliy yuksalish sari tashlayotgan qadamlari hamisha estetik madaniyatning dolzarb masalalarini o'zida ifodalagan holda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, mana shunday estetik dunyoqarash mamlakatimizda bunyod etilayotgan yangidan-yangi madaniyat va san'at maskanlarida aks ettirilgan. Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "shular qatorida poytaxtimizda bunyod etilgan "G'alaba" bog'i, "Shon-sharaf muzeyi", Toshkent shahrining tarix muzeyi, betakror Adiblar xiyoboni farzandlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirishga xizmat qilishi shubhasiz"[3.444-bet].

Bizning ushbu buyuk ma'naviy merosimiz shu yurtning har bir fuqarosi qalbida Vatanga mehr-muhabbat, yurtga sadoqat bilan yashash tuyg'ularini kamol toptirish bilan bir mustaqillikning buyuk ne'mat ekanligidan bahramand bo'lish singari faxrlanish olamini shakllantiradi. Yurtimizning boy estetik qadriyatlarini asrab-avaylash, ularning yoshlar qalbida estetik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan qirralarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Barchamiz yoshlarga ta'lim berishda bu merosning estetik omillari va madaniyatimiz tizimidagi bahosini tushuntirishimiz lozim. Bu omillarni ichki o'zaro aloqasi hamda o'z ma'naviy qadriyatlariga intilishi yoshlar faoliyati va o'zaro aloqasi jarayonida ishlab chiqilgan yoki ishlab chiqilayotgan barcha intellektni (salohiyatni) umuminsoniy qadriyatlar doirasida rivojlantiradi.

Yoshlarning estetik kamoloti faqatgina dunyoviy bo'lib qolmasdan, unda diniylik ham o'zining tarixiy zamindagi ildizi orqali islomiy qiyofasida aks etib kelmoqda.

Birinchidan, jahon xalqlari umummilliy ma'naviy qadriyatlarini vorisiylik asosida o'tib kelayotganligiga e'tibor bersak jahon dinlarining an'analarini guvohi bo'lishimiz mumkin. Bundan uzoqlashish madaniy vorislikni yo'q qilish, xalqni bir yoqlama dunyoqarashga olib boradi. Ikkinchidan, har bir davlat o'zining kelajak avlodi haqida qayg'urganda tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan diniy tafakkurini yoshlar ongida qay tarzda namoyon bo'lishi, unga munosabat masalasini hisobga oladi. Uchinchidan, har bir davlatning o'ziga xos va mos jahonning tanlangan alohida boshqaruv shakli bo'lib, qaysidir davlatda dinning hukmronligi aks etsa, boshqasida dunyoviylik o'zining shakl-shamoyili bilan ajralib turadi.

Qaysi bir davlat o'z tarixida dinni xalqning estetik madaniyatidan ajratgan bo'lsa, dinga salbiy munosabat bildirgan bo'lsa kelajakda o'z tanazzuli tezlashishiga keng yo'l ochib bergan. Bunday falsafiy dunyoqarash o'sib kelayotgan yoshlarning o'z qiyofasidan mahrum bo'lishiga olib kelgan. Buni biz sobiq sho'rolar davridagi siyosatda guvohi bo'ldik. Bu davrdagi g'oyalarda dinning jamiyatdan batamom ajratilishi odamlardagi diniy tafakkurga nisbatan intilishni yanada kuchaytirishga, yashirin holda bo'lsada o'z e'tiqodini mustahkamlashga intiltirdi. Eng xarakterli narsa shu bo'ldiki, jamiyatda estetik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan har qanday qudratli kuchlar ham ajdodlar tarixiy xotirasi va takrorlanmas madaniy yutuqlar salohiyatiga bardosh berolmaydi. Buni sobiq totalitarizm sharoitida jamiyatning o'zligini yo'qotishga qaratilgan islohotlarda ham ko'rish mumkin. Ushbu jarayon umuminsoniy qadriyatlarning yoshlarga borliqni o'zlashtirishda, milliy e'tiqodni mustahkamlashda yordam beradi. "Odamlarda kelajakka ishonch tuyg'usini o'zining madaniyati, qadriyatlari, ilm-fan yutuqlari, falsafiy dunyoqarashi, axloq normalari orqali qoldiradi" [4.96-bet].

Bu fikrlarga qo'shilar ekanmiz, insoniyat ilgari erishilgan natijalarni ongli xotirasidan o'chirishga qodir emas. Har qanday yangi avlod o'zidan oldin yashagan avlodlarning e'tiqodi va qadriyatlari negizida rivojlanadi. Shu tariqa avlodlar o'rtasidagi umuminsoniy qadriyatlarning davomiyligi ta'minlanadi. Aslida "umuminsoniy qadriyatlar boshqa qadriyatlar uchun umumiy mezon vazifasini o'taydi" [5.476-bet]. Jamiyatda oldingi avlod qoldirgan estetik madaniyat hech qachon yo'qolmaydi. Estetik

madaniyatlarning rivojlanishida bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatish deganda ikki yoki ko'p tomonlama ta'sir tushuniladi, ya'ni bu erda nafaqat bevosita to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatish jarayoni, balki aks yo'nalishdagi ta'sir, shuningdek, atrofdagi olam hodisalari va obyektlarini bilish va baholashga qaratilgan to'g'ridan-to'g'ri, hissiy-ma'naviy, farqli estetik idrokdan tashkil topgan. Odamlarning estetik ongidagi o'zgarishlarda millatning turmush tarzi, adabiy jarayonlardagi xalq og'zaki ijodida estetik ideallarga qorishiq ratsional tafakkur orqali ifodalanadi.

Jamiyatda yoshlarning umuminsoniy qadriyatlarga e'tiqodi qanchalik mustahkam bo'lsa, uning rivojlanish imkoniyati ham shunchalik katta bo'ladi. Natijada odamlarning estetik ongi va tafakkurida etnoestetik qadriyatlarni takomillashtirishga bo'lgan qiziqishlar kuchayib boradi. Bunda kelajak egalari bo'lmish yoshlar mamlakatning istiqbolini belgilaydilar va jamiyat taraqqiyotida faol fuqarolik pozitsiyalarini namoyon etib, ijtimoiy munosabatlar tizimiga o'z ma'naviy hissalarini qo'shib boradilar. Jamiyatning bazisi qanchalik baquvvat bo'lsa, undagi ustqurma shuncha baland va mustahkam bo'ladi. Bugungi kunda yoshlar milliy ongi va umuminsoniylik orqali qadriyatlarning obyektivligini ta'minlamoqdalar. Jamiyatda madaniy obyektlarni yaratuvchi kuchlarning zamonaviy innovatsion jabhalar bilan aloqadorligi ifodalanmoqda. Bunday falsafiy tafakkur tarixiy taraqqiyot bilan uyg'un holda umuminsoniy qadriyatlar rivojiga o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Jamiyatda "buyuk ajdodlarimizning tafakkurlari va muddaolaridan boshlanadigan xalqimizning ma'naviy qadriyatlari iqtisodiy o'zgarishlarimizning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi"[2.105-bet].

Bu esa, jamiyatda yoshlarning estetik madaniyati rivojlanishiga, boshqa millat vakillariga nisbatan bag'rikenglikning shakllanishiga xizmat qiladi. Yoshlar o'z xatti-harakatlari asosida estetik ideal va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiradi. "Odam bolasi shu umumbashar go'zallik, insoniy go'zallik uchun kurashishi, shu oliy maqsad yo'lida sira charchamay, sira erinmay kurashishi kerak"[1.9-bet]. Barcha joylarda ham insonlar bunday estetik qonuniyatlar asosida yashashga, turmush tarzining nafosat bilan uyg'un qilishga birdek tayyor emaslar. Xulosa qilib aytganda, yoshlar doimo intiluvchan va izlanuvchan bo'lib, ikkilamchi muhitni yaratishga, tabiatdan tashqaridagi

go'zalliklarni ijtimoiy hayotga olib kirishga intiladilar. Ikkinchidan, yangi O'zbekistonda rivojlantirishga asoslangan taraqqiyot strategiyasining negizida inson va uning manfaatlarini bosh mezon qilib olish, bunda yosh avlodning umuminsoniylikka yondashuvi va milliy qadriyatlarga estetik munosabatini yangilash ko'zda tutildi. Uchinchidan, yoshlar uchun siyosat va iqtisodiyotda tashabbuskor bo'lish imkoniyatlari kengaydi. Yoshlarda fikrlash tarzi kengayib, mamlakat ertasi uchun bugundan mehnat qilishi ruhiyati shakllandi. Jamiyatda umumbashariy qadriyatlar ahamiyatining ortishi fuqarolar tafakkur ko'lamini ham o'zgartirib yubordi. To'rtinchidan, yoshlarning ma'naviy olamini boyitishga xizmat qiladigan ijtimoiy ideallarni ko'paytirish, turli salbiy illatlarga qarshi tura oladigan zamonaviy estetik madaniyatni sog'lom raqobat muhitida rivojlantirish, yangicha falsafiy tafakkur shakllanishi va o'zgarishiga erishish katta ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ismoilij M. Odamiylik qissasi. Inson husni. –Toшкент: Ziyо nashr, 2019. – 9 b.
2. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. –Тошкент: Ўзбекистон, 2-ж., 1996. – 105 b.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 444 b.
4. Отамуротов С., Отамуротов С.С. Ўзбекистонда маънавий-руҳий тикланиш. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – 96 b.
5. Фалсафа. Қомусий луғат. –Тошкент: Шарқ, 2004. – 476 b.